


O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
BUXORO AKADEMIK LITSEYI

**„YANGI O‘ZBEKISTONDA BARKAMOL  
AVLOD TARBIYASI: MUAMMO  
VA YECHIMLAR“**

*mavzusida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy  
konferensiya materiallari to‘plami*

ISBN978-9910-9645-1-0



9 789910 964510



**BUXORO – 2023-YIL**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI**

**BUXORO AKADEMIK LITSEYI**

**„YANGI O‘ZBEKISTONDA BARKAMOL  
AVLOD TARBIYASI:**

**MUAMMO VA YECHIMLAR“**

*mavzusida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya  
materiallari to‘plami*

**“Buxoro viloyat bosmaxonasi” MChJ**

**nashriyoti–2023 yil**

УДК 172.12-053.81(575.1)

КБК 87.77(50')

В 29

**ISBN 978-9910-9645-1-0**

**Barnoyev Sanjar,**

„YANGI O‘ZBEKISTONDA BARKAMOL AVLOD TARBIYASI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR“ [Matn] : to‘plam / Buxoro:  
“Buxoro viloyat bosmaxonasi” MChJ nashriyoti, 2023. -384 b.

Ushbu to‘plamda Ichki ishlar vazirligi akademik litseylari o‘quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga oid amaliy tadbirlar haqida, ularni chuqurlashtirilgan va kasbga yo‘naltirilgan o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi davlat ta‘lim standarti talablariga muvofiq sifatli o‘qitishni tashkil etish; yoshlarni Vatanga, yuksak fuqarolik hamda demokratiya, mustaqillik g‘oyalariga, o‘z xalqining ma‘naviy va tarixiy qadriyatlariga sadoqat ruhida tarbiyalash; o‘quvchilarga qonunchilikni to‘g‘ri tushunishni va ularga rioya qilishni ta‘minlaydigan yuksak madaniyatni, kasbiy ko‘nikmalarni, keng dunyoqarash, sog‘lom fikrlash, alohida sharoitlarda vaziyatga to‘g‘ri baho berish ko‘nikmalarini shakllantirish; jinoyatchilikka qarshi murosasiz munosabatni shakllantirish, shuningdek, umumta‘lim fanlari va til o‘qitish metodikasi bo‘yicha maqola va tezislar berilgan.

### **Mas‘ul muharrir:**

***B. B. Namozov** f.f.d. (DSc) – BuxDU “Islom tarixi va manbashunoslik, falsafa” kafedrası mudiri*

### **Taqrizchilar:**

**D.H.Quvvatova** – f.f.d., professor, BuxDU “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrası o‘qituvchisi

**D.B.Zaripova** – f.f.f.d. (PhD), IIV Buxoro AL “Tillarni o‘rganish” kafedrası mudiri

*Ushbu maqolalar to‘plami IIV Buxoro akademik litseyining 2023-yil 13-noyabrdagi 4-sonli Pedagogik kengashida ko‘rib chiqilgan va nashrga tavsiya etilgan.*

65. CHIZIQLI FUNKSIYANING KASR QISMI TAQSIMOTI Kenjayev Sharof Shermuxamatovich, Imomqulov Islom Ikromjon o'g'li .....	
66. AKADEMIK LITSEYLARDA AXBOROT-TA'LIM MUHITI YARATISHNING TA'LIM SAMARADORLIGIDAGIAHAMMIYATI Arashova Dilobar Ro`zimurodovna .....	
67. FIZIKA FANINI O'QITISHDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI Axmedov Yodgorbek Olimjonovich.....	
68. FIZIKA O'QITISHDA INTEGRATIV YONDOSHUV DAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI Bekpo'latov Ulug'bek Rahmatulla o'g'li, Musurmonov Mehridin Ulug'bek o'g'li .....	
69. ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING ISTIQBOLLARI N.S.Sayidova, S.M. Berdiyeva.....	
70. YEVROPA ITTIFOQI VA O'ZBEKISTON: TA'LIM SOHASIDA HAMKORLIK Boltayev Erkin Qo'ziyevich .....	
71. LOGARIFM HAQIDA TUSHUNCHA. LOGARIFMLARNING ASOSIY XOSSALARI. LOGARIFMLARNI MASALALARDA QO'LLANILISHI Halimov Sunnat Safarovich .....	
72. GEOMETRIYAGA OID DASTLABKI TUSHUNCHALAR. GEOMETRIYANING ASOSIY TUSHUNCHALARI HAQIDAGI MA'LUMOTLARNING BERILISHI Halimov Sunnat Safarovich, Qanoatova Dilfuza Sattorovna.....	
73. OPTIKA KURSINI O'QITISHDA "MEXANIK ANALOGIYA" USULIDAN FOYDALANISHNING METODIK IMKONIYATLARI Islamova Nilufar.....	
74. "IMPULSNING SAQLANISH QONUNI"NI EKOLOGIK BILIMLAR INTEGRATSIYASI ASOSIDA O'QITISH Musurmonov Mehridin Ulug'bek o'g'li .....	
75. O'QUVCHILARNING FIZIKA FANIGA OID KOMPETENSIYALARINI SHAKLANTIRISHDA "MOBIL ILOVALAR" DAN FOYDALANISH Najmiddinov Murat Kamolovich, .....	
76. AKADEMIK LITSEYLARDA DARS JARAYONIDA INFOGRAFIKADAN FOYDALANISH Sayidova Nazokat Sayfullayevna, Ostonova Nafisa Xikmatovna .....	
77. KVADRAT TENGLAMA VA UNING ILDIZLARI MAVZUSINI O'QITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI Safarova Nigora Nasillovna, R.A.Abdukarimova.....	
78. YaNGI O'ZBEKISTON – YaNGI KADRLAR YaNGI OLIY TA'LIM TIZIMI: MUAMMO VA KREATIV YEChIMLAR Xo'jaeva Gulshoda Jalilovna .....	
79. O'QUVCHILARDA TANQIDIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI F.Adizova. , IIV Navoiy akademik litseyi .....	
80. MULTIMEDIAILOVALARIYARATISHTEXNOLOGIYASI S.M. Berdiyeva – O'zbekiston Respublikasi .....	
81. MATEMATIK FUNKSIYALARNI TEKSHIRISHDA HOSILADAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI Jo'rayev Muzaffar Nodirovich, Xayrullayev Inomjon Ulug'bek o'g'li	
82. AKADEMIK LITSEYLARDA FIZIKA-MATEMATIKA FANLARINI O'QITISHDA ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA ZAMONAVIY AXBOROT VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI Meliqulova R.A, Islomova N.Sh.....	

Xulosa qilib aytganda, fizika darslarida o‘quvchilarning fanga oid kompetensiyalarini shakllantirishda mobil ilovalardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etib, har tamonlama yetuk kadrlarni tayyorlash imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Mirziyoyev Sh. “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmon. 2022-yil, 28-yanvar.
2. Azizxodjayev N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T., Cho‘lpon, 2005.
3. Mahmudov A.X. Bo‘lajak magistrnlarni kompetentli tayyorlashning didaktik ta‘minotini takomillashtirish. Ped. fan. dokt. dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2016.
4. Ojegov S. Толковысловаррусскогоязыка. – Moskva, 1972.

### **AKADEMIK LITSEYLARDA DARS JARAYONIDA INFOGRAFIKADAN FOYDALANISH**

**Sayidova Nazokat Sayfullayevna**

**BuxDU Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar kafedrasida dotsenti,  
f.m.f.n.**

**Ostonova Nafisa Xikmatovna**

**IIV Buxoro akademik litseyi o‘qituvchisi, BuxDU Axborot tizimlari va  
raqamli texnologiyalar magistranti**

**Annotatsiya:**Maqolada infografikadan foydalanishning ahamiyatlari, ularning turlari, dizaynlari va reklamasi haqida ma‘lumotlar berilgan. Bu esa barcha foydalanuvchilar uchun ahamiyatli ekanligi hamda biz uchun muhim bo‘lgan ma‘lumotlarni eng yaxshi ko‘rinishdagi formatda qanday qilib taqdim etish to‘g‘risida batafsil tushuntirilgan. Ayniqsa bugungi kunda akademik litseylarda dars jarayonida infografikadan foydalanishning afzalliklari, istiqbollari, infografika tarixi, undan foydalanish muhim tomonlari keltirib afzalliklari esa sanab o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** infografika, internet, infogram, grafika, veb-sayt, Piktochar, banner, animatsiya, Canva, PNG, JPG, PDF, MP4, GIF, interfeys, eksport, Creately, havola, UML, SWOT, tarmoq, Venn, Visme, Venngage, effekt, diagramma, blok, dizayner, illyustrator, statistik, format, axborot vositalari.

**Kirish.** Butun dunyo miqyosida uzluksiz ta‘lim tizimining barcha bosqichlarida ta‘lim mazmuni va sifatini tubdan isloh qilish, shu asosda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va barkamol avlodni voyaga yetkazish muhim

strategik yo‘nalishlardan biri sifatida e‘tirof etilgan. Ta‘lim tizimiga e‘tibor barcha taraqqiy etgan mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirish uchun poydevor ekani bugungi kunda o‘z isbotini topganligi ham ma‘lum. XXI asrda jahon miqyosida ta‘lim barqaror taraqqiyotni ta‘minlovchi asosiy omil ekanligi, 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta‘lim konsepsiyasida “butun hayot davomida sifatli ta‘lim olishga imkoniyat yaratish” dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Bu ta‘lim tizimida pedagoglar, jumladan, barcha akademik litsey o‘qituvchilari ayniqsa axborot texnologiyalari sohasida ishlovchi o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatida metodik tayyorgarlik darajasini oshirish, ijodiy tafakkurni rivojlantirishga yo‘naltirilgan texnologiyalardan foydalanish imkoniyatini berdi. Yurtimizda ta‘lim tizimini modernizatsiyalash, uzluksiz ta‘lim jarayonlarining yangi me‘yoriy asoslarini yaratish, xorijiy davlatlar bilan o‘quv markazlar, institutlarni tashkil etish malaka oshirishni yanada rivojlantirish imkoniyatini yaratdi.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi Farmonda “sifatli ta‘lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish” bo‘yicha belgilangan ustivor vazifalarni amalga oshirishga alohida ahamiyat berilgan [1].

Raqobatbardosh, barkamol, kreativ fiklash qobiliyatlariga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlash jarayonida o‘quv faoliyatini rivojlantirish, ta‘lim tizimini tubdan isloh qilish, ta‘lim jarayonida yangicha yondashuvni vujudga keltirish kabi amaliy xarakterga ega ishlarni amalga oshirishda rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rganish yuksak bosqichga ko‘tarilmoqda.

Yuqoridagi dolzarb muammolarni yechish borasida mamlakatimizda yetarlicha huquqiy asoslar qabul qilingan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli qonuni [2] mazkur faoliyatga doir boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar fikrimizning isboti sanaladi.

Bugungi kunda hayotimizni grafik muharrirlarsiz tasavvur qilishimiz juda qiyin, boisi shundaki, texnika rivojlanib borayotgan zamonamizda ma‘lumotlarni inson ongi yozuvlardan ko‘ra turli xil belgi, rasm, shakl boshqacha qilib aytganda lug‘atimizga yangi qo‘shilgan infografika so‘zi orqali qabul qilishi yanada osonlashdi. Barcha soha raqamlashgan davrda o‘quvchi–yoshlarga bir sohadagi ma‘lumotlarni aniq va to‘g‘ri tahlil qilishi uchun grafik muharrirlarda yaratilgan infografik axborotlarga bo‘lgan talab ham o‘z –o‘zidan yanada ortdi.

Infografika – bu ma‘lumotlarni vizualizatsiya qilish usuli. Siz murakkab raqamli ma‘lumotlarni sodda, tushunarli grafik tilda uzatasiz va zerikarli raqamlar ustunlari o‘rniga siz informatsion, jonlantirilgan hisobot hikoyasini olasiz. Buni

yaratishda esa quyidagi dasturlardan yuqori darajadagi bilimga ega bo'lmagan holda osongina bajarish imkoniyatini olishingizdir.

**Infogram** –Intuitiv ixcham interfeysga ega xizmat. Sinov muddati yordamida undagi imkoniyatlarni bepul ma'lum vaqt davomida ishlatib ko'rishingiz yoki pullik turli tariflaridan foydalanishingiz mumkin. U bilan ishlash juda oddiy: taklif qilingan variantlardan dizaynni tanlang, ma'lumotlarni yuklang, diagrammalarni to'g'rilang, xaritalar, videolar yoki rasmlar qo'shing [3].



### 1-rasm. Infografika

Bepul rejada 30 dan ortiq turdagi diagrammalar, 4 turdagi grafiklar, infografika uchun 7 ta tayyor shablon mavjud. Dizayn tugmasini bosib va tushuntirishlarni, sarlavhalarni tahrirlang, rasmlar qo'shing yoki grafikdagi elementlarning rangini o'zgartiring. Nashr qilingandan so'ng, infografikani o'z manbangizga (jumladan, ijtimoiy tarmoqlar, veb-sayt) joylashtiring. Ushbu xizmatda ishlash uchun siz dasturlash yoki loyihalash imkoniyatiga ega bo'lishingiz shart emas. Bir tugmani bosish va natija estetik jihatdan yoqimli va tushunarli ko'rinadi.

**Piktochart** – rasmlar va shablonlarning katta to'plamiga ega ilova, hatto bepul versiyada ham. Siz san'at maktabiga bormagan bo'lsangiz ham taqdimotlar, hisobotlar, bannerlar, infografika yaratishingiz mumkin. Ilovada loyihangiz uchun tahrir qilishingiz mumkin bo'lgan ko'plab pullik va bepul shablonlar mavjud. Saytda talabalar uchun Piktochart bilan ishlash bo'yicha batafsil qo'llanma va vizual hikoya qilish asoslari bo'yicha bepul kurs mavjud bo'lgan ma'lumot bo'limi sizning xizmatdagingizda. Ushbu vositalar hisobotingizni to'g'ri yozishingizga yordam beradi. Infografika bo'limida 12 ta bepul shablon mavjud. Bepul rejada siz YouTubedan xarita yoki video yuklab olishingiz mumkin. Ilovada IOS va Android uchun imkoniyatlar mavjud.

**Canva** – keng grafik imkoniyatlarga ega xizmat. Bu sifatli mahsulot ekanligini tushunish uchun sharhlarni o'qish kifoya. Tasodifiy foydalanuvchilar uchun ajoyib. Qatlamlarni, uslublarni, matnni tahrirlash, rasmlar, videolar va diagrammalarni kiritishingiz mumkin bo'lgan ko'plab tayyor andozalar mavjud.

Barcha interfeys oddiy va tushunarli. Xizmatning asosiy afzalliklari - GIF animatsiyasini yaratish, elementlarning shaffofligini sozlash, real vaqtda bitta loyihada jamoada ishlash, shuningdek ish natijasini PNG, JPG, PDF, MP4 va boshqalarga eksport qilish. Infografikani yaratish uchun Infografik shablonni tanlang va kerakli ma'lumotlarni to'ldiring. Sinov muddati bor va butunlay bepul versiyasi ham mavjud.

**Creately** – oqim diagrammalarini, havola xaritalarini, KWL jadvallarini va boshqalarni yaratish xizmati. Tezda turli xil oqim diagrammalarini, ko'p turdagi diagrammalarni (UML, SWOT, Tarmoq, Venn), havolalar xaritalarini, KWL jadvallarini, tashkiliy sxemalarni va boshqalarni tezda yaratish uchun ko'plab sxematik vositalar va tayyor yechimlar mavjud. Haqiqiy vaqtda bitta loyiha bo'yicha jamoaviy ishlash, loyihaga sharh qoldirish va uni ulashish imkoniyati mavjud. 50% chegirma bilan o'qish, fikr almashish va boshqa talabalardan o'rganish mumkin bo'lgan umumiy onlayn xost mavjud. "Ta'lim uchun" tugmasini bosib va chegirmaga ega bo'ling.

**Visme** – taqdimotlar, hisobotlar, animatsiyalar, infografika va boshqalarni yaratish uchun aniq interfeysga ega vizual seminar. Asosiy boshqaruv paneli chap tomonda joylashgan. "Yaratish"ni bosib, tavsiya etilganlardan mavzuni va keyin tegishli tartib variantini tanlang. Xizmat ko'plab shablonlarga ega, jumladan animatsion piktogramma va turli xil maxsus effektlarga ega. Bir nechta rejalar mavjud: cheklangan xususiyatlar bilan bepul, birinchi loyiha uchun sinov va boshqalar. Talabalar uchun 50% chegirma mavjud. To'lov 20 dollar bo'lishini anglatadi. Sizda 250 MB bo'sh joy va premium shablonlar, grafikalar va vidjetlar bo'ladi. Siz beshtagacha loyiha yaratishingiz va tayyor loyihani JPG, PNG, PDF formatlarida yuklab olishingiz mumkin.

**Easel.ly** – minimalistik interfeysga ega yangi boshlanuvchilar uchun ajoyib imkoniyat. Arzon narxlarda tariflar mavjud (oyiga 5 dollardan), talabalar uchun 50% chegirma mavjud. Faqat statik tasvirlar bilan ishlaydi. Ushbu xizmat original yechimlarsiz oddiy infografikalarni tezda yaratish kerak bo'lganda foydalaniladi. Turli fonga ega 15 ta bepul shablon mavjud. Bepul versiyada siz ro'yxatdan o'tmasdan infografikani yaratishingiz va natijani JPG va PDF formatida xizmat logotiplarisiz saqlashingiz mumkin.

**Vennage** – infografika, taqdimotlar, bannerlar, oqim diagrammalari, xaritalar, hisobotlar va boshqalarni yaratish uchun ko'p funksiyali xizmat. Bepul versiyada 10 dan ortiq oldindan tayyorlangan shablon, piktogramma va fotosuratlar mavjud. O'rnatilgan foto muharririda siz tasvirlarni tanib bo'lmaydigan darajada o'zgartirishingiz mumkin – foto muharriri ajoyib xususiyatlarga ega. Cheklov beshta infografikaga o'rnatiladi, ammo ularni yangi loyiha uchun cheksiz tahrirlash



mumkin. Siz tayyor infografikani faqat onlayn rejimda nashr qilishingiz mumkin - uni smartfon, kompyuter, noutbukda saqlay olmaysiz yoki elektron pochtaga yubora olmaysiz. Talabalar uchun Venngage o'quv markazida ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish, infografika turlari haqida nazariya va rezyume yozish bo'yicha maslahatlar bilan foydali maqolalar mavjud. Barcha konstruktorlar intuitivdir – ulardan qanday foydalanishni osongina o'rganasiz.



**2-rasm. Infografika haqida**

Hozirgi davrda grafik media mahsulotlarga bo'lgan talab va e'tibor kun sayin ortib bormoqda. Ijtimoiy mediamarketing rivojlangani sayin, insonlarga xizmat, mahsulot hamda faoliyat haqida uzundan-uzoq tekstli ma'lumotlardan ko'ra vizual kontent — infografikalar taqdim etilishi ancha effekt bermoqda. Infografika boshqa elementlarni (matn, ko'rsatkichlar, diagrammalar, bloklar va ikonlar) o'z ichiga olishi mumkin, unda grafik tasvirlar asosiy rol o'ynaydi. Infografikani odatda grafik dizaynerlar, ba'zan esa illyustratorlar yaratadilar.

Infografika axborot uzatishning mustaqil vositasidir. Bir so'z bilan aytganda, infografika materialni tez, vizual va yorqin taqdim etish uchun mo'ljallangan, bo'lib uning bir qancha afzalliklari mavzuj, ularni quyida sanab o'tamiz:

- infografika sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni ko'rsatishga imkon beradi – matnni uzoq vaqt o'qish uchun bugungi auditoriyaning sabri va vaqti kamlik qilmoqda.
- yaxshi infografika ma'lumotni yanada aniqroq qiladi.
- qiziqarli rasm tomoshabinlarning e'tiborini jalb qilishga yordam beradi, shuning uchun bu format ommaviy ravishda qo'llaniladi. Bugungi zamonaviy ta'lim tizimida ham infografik materiallardan ko'proq foydalanish tavsiya etilmoqda.
- ommaviy axborot vositalarida birinchi infografika faqat statistik ma'lumotlarni taqdim etish uchun ishlatilgan. Biz uni quyidagi qo'llashimiz mumkin:
  - infografika yordamida siz mijozlar yoki xodimlarning ma'lumotlari bilan tanishishingiz mumkin;
  - muhim yangiliklarni ko'rsatishingiz mumkin;

- mahsulotlaringizni/xizmatlaringizni reklama qilasiz;
- odamlar qaysi tilda gaplashishidan qat'i nazar, hamma uchun tushunarli bo'lgan qulay texnik ko'rsatma tayyorlagan bo'lasiz;
- statistik ma'lumotlar, yillik hisobot, tadqiqot natijalarini tayyorlashingiz mumkin;
- infografika ko'ngilochar va ommabop ilmiy saytlar tomonidan keng qo'llaniladi – ko'pincha qurilmani yoki mexanizmini tushuntirish uchun. Xuddi shu maqsadda u o'quv materiallarida qo'llaniladi.
- yo'l belgilari ham infografikaning bir turidir [4].

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasito'g'risida" PF-60-sonli farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli qonuni.

3. Sayidova N.S., Ostonova N.X. The importance of using infographics. International journal of advanced research in education, technology and management: 2 pp. 515-522 (5). May 30, 2023. ISSN:2349-0012 <https://doi.org/10.5281/zenodo.7985718>

4. SayidovaN.S., OstonovaN.X. Infografika, napravlennayavsistemeobrazovaniya. Educational Research in Universal Sciences. Multidisciplinary Scientific Journal. June, 2023. 469-477 (5). June, 2023. "Educational Research in Universal Sciences (ERUS)" [https://t.me/Erus\\_uz](https://t.me/Erus_uz) ISSN: 2181-3515. VOLUME 2 |SPECIAL ISSUE5| 2023. <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3177>

## **KVADRAT TENGLAMA VA UNING ILDIZLARI MAVZUSINI O'QITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**Safarova Nigora Nasilloevna**

**IIV Buxoro akademik litsey matematika fani bosh o'qituvchisi**

**BuxDU erkin izlanuvchisi,**

**R.A.Abdukarimova**

**BuxDU fizika-matematika fakulteti 1\_1Mat 21-guruh talabasi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada "Kvadrat tenglama va uning ildizlari" mavzusini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr mulohazalar yuritilgan. Dars jarayonida mumkin bo'lgan interfaol usullardan "Qoidani to'g'ri ayt" o'yini va "Mosini top", mavzuga oid testlar usullaridan foydalangan holda o'quv mashg'ulotlari samaradorligini oshirish haqida ma'lumotlar keltirilgan. Maqola

---

**Barnoyev Sanjar**

**„YANGI O‘ZBEKISTONDA BARKAMOL  
AVLOD TARBIYASI:**

**MUAMMO VA YECHIMLAR“**

*mavzusida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya  
materiallari to‘plami*

**МУҲАРРИР: С.ШОДИЕВ**

**ТЕХНИК МУҲАРРИР: Т.ЛАТИПОВА**

**МУСАҲҲИҲ: Ж.ИБОДУЛЛАЕВ**

Нашриёт лицензияси №8589.

Оригинал макетдан босишга рухсат этилди.  
30. 12. 2023 йил. Бичими 60x84. “Times” гарн.  
Офсет қоғози. Босма табоғи 24,0. Адади 100.  
Буюртма №1060. Баҳоси келишилган нархда.

“Бухоро вилоят босмахонаси” МЧЖда чоп этилди.  
Бухоро шаҳри, И.Мўминов кўчаси, 27-уй.